

- motivatsiyaning hissiy usullari (rag'batlantirish, ayblash, tarbiyaviy o'yin, yorqin vizual tasvirlarni yaratish, muvaffaqiyat holatini yaratish, rag'batlantiruvchi baholash, vazifalarni yerkin tanlash, muhim shaxs bo'lish istagini qondirish);

-kognitiv usullar (hayotiy tajribaga tayanish, kognitiv qiziqish, muammoli vaziyatni yaratish, ijodiy vazifalarni bajarish, aqliy hujum);

- motivatsiyaning ixtiyoriy usullari (ta'lim talablarini taqdim yetish, ta'limning majburiy natijalari to'g'risida ma'lumot berish, o'rganishga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish, kognitiv qiyinchiliklar, faoliyatni o'z-o'zini baholash va tuzatish);

- motivatsiyaning ijtimoiy usullari (Vatanga foydali bo'lish istagini rivojlantirish, kuchli shaxs bo'lishga intilish, o'zaro yordam vaziyatini yaratish, aloqalar va hamkorlikni izlash, jamoaviy ish natijalariga qiziqish, o'zaro tekshirish).

Motivatsiya usullaridan foydalanganda dozani kuzatish kerak va usullarni tanlash mavzuga, darsning maqsadiga, o'quvchilar guruhining tayyorgarlik darajasiga, psixologik va yosh xususiyatlariga bog'liq bo'lishi kerak.

Xulosa shuki, ilmiy tadqiqotimizda olingan natijalar xorijiy tillarni o'zlashtirishda motivasion yondashuvlar to'g'risidagi ilmiy bilimlarni kengaytiradi. Xorijiy tillarni o'rganishning juda muhim hisoblangan motivasion yondashuvlar ilmiy-amaliy jihatdan o'rganish orqali o'qituvchilarining psixologik kompetentligini rivojlantirishga taalluqli ilmiy ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Bu esa xorijiy tillarni o'rganishning motivasion yondashuvlar bo'yicha ilmiy qarashlarni yanada kengaytiradi. Shunday qilib, motivatsiya talabalar muvaffaqiyatining asosiy omilidir. Darsning turli bosqichlarida o'qitishning asosiy usullari bilan birgalikda chet tilini o'rganish jarayonining samaradorligini oshiradigan motivatsiya usullari va samarali ish shakllaridan foydalanish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Зимняя И. А. Педагогическая психология: учебник для вузов. 2-изд. доп., испр. и перераб. / И. А. Зимняя – М.: Логос, 2005.
2. Константинова Н. А. Развитие мотивации студентов как средство повышения качества обучения иностранным языкам / Н. А. Константинова, И. Д. Михеев // Успехи современного естествознания. – 2008. - № 2. – с. 60-62.
3. Логинова А. В. Способы повышения мотивации студентов к изучению иностранного языка / А. В. Логинова, Н. А. Отбанов // Молодой ученый. – 2015. - № 11. – С. 1395 – 1397.
4. Полат Е. С. Метод проектов на уроках иностранного языка / Е. С. Полат // Иностранные языки в школе. – 2000. - № 2.
5. Миличева М.Г. О психолингвистике и нейролингвистике билингвизма// Вопросы науки и образования. – Москва, 2018. – №9. С.173-174. ISSN 2542-081X.
6. Миличева М.Г. Инновационные технологии обучения иностранным языкам// Вопросы науки и образования – Москва, 2019. – №6 (40). С.106-108. ISSN 2542-081X.
7. Miliyeva M.G. Influence of Bilingualism on Socio-Cognitive Personal Development. Zien Journal of Social Sciences and Humanities 17.04.2023. P.61-64. <https://zienjournals.com/index.php/zjssh/article/view/3765>

YOSHLARNING AXBOROT ISTE'MOLI MADANIYATIGA OID MUAMMO VA YECHIMLAR.

D.T.Polvonova

O'zDJTU, pedagogika va psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi


Anotatsiya. Yoshlarda internetdan foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirish va kiberbulling tahdidlaridan va axborot-psixologik xavfsizlikka tahdidlardan himoyalaniş ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha olib borilgan izlanishlar natijalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Internet, kiberbulling, kompyuterdan foydalanish kompetensiyasi, axborot iste'moli madaniyati, axborot tahdid.

Bugungi dolzarb davrda deyarli barcha, jumladan yoshlarimiz Internetning faol foydalanuvchilariga aylanib bo'lishdi. Internet ko'plab imkoniyatlar eshigini ochdi, bilim olish, pul topish, muloqot qilish, kasb hunar o'rganishu, birpasda internet "yulduzi"ga aylanish bugungi kunda oddiy holat sifatida qabul qilinmoqda. Biroq internet faqat imkoniyatlar eshigi emas, balki yoshlar ongiga qaratilgan turfa tahdidlarni amalga oshirish, jamiyat mafkurasini buzish, turli kuchlar tomonidan siyosiy doiralarning qarashlarini targ'ib qilish uchun to'siqsiz maydon deyish mumkin.


Yoshlarimiz Internetdan foydalanish bo'yicha keng imkoniyatlarga ega ekanligi quvonarli holat, ammo ular yoshlar ongiga qaratilgan turli tahdidlardan himoyalaniish yo'llaridan boxabarmilar, "Axborot asri" deya tan olingan XXI asrda axborotlarni saralash, tanlab "iste'mol qilish" ko'nikmasiga egami?

Talaba yoshlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomamiz natijalariga ko'ra, Kompyuter texnologiyasida ishlashni asosan qay tartibda o'rgangansiz degan savolga sinaluvchilarning 38% maktab, litsey va kollejlarda o'qitiladigan informatika darslarida, 26% ko'proq qarindoshlari, do'stlari va yaqin tanishlaridan, 36% mustaqil tarzda o'zlashtirganliklarini bayon qilganlar.(1-rasmga qarang)




1-rasm. Respondentlarning kompyuter texnologiyasida ishlashni asosan qay tartibda o'rganganligi.

Internet tahdidlaridan psixologik himoyalaniishga oid ma'lumotlarni asosan qaerdan olasiz degan savolga 48 foiz sinaluvchilar ta'lim muassasalaridan, 18 foizi ommaviy axborot vositalaridan, 25,3 foizi ijtimoiy tarmoqlardan mustaqil foydalanish paytida, 8,7 foizi oiladan olayotganliklarini bildirganlar. Bundan xulosa qilish mumkinki, yoshlarda Internetdan foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirish va kiberbulling tahdidlaridan himoyalaniish ko'nikmalarini shakllantirishda, ta'lim muassasalari tomonidan berilayotgan bilim, ko'nikmalarning yetarli emasligini ko'rish mumkin. Ta'lim dasturlarida fanlararo integrativ yondashuv asosida axborot - psixologik tahdidlarga oid tushunchalarni kengaytirish, amaliy psixologiya darslari orqali malaka hosil qilish maqsadga muvofiq. Shu qatorda davlat va nodavlat tashkilotlari, Internet provayderlari bilan hamkorlikda ishlashni yo'lga qo'yish zarur. Ishtirokchilar o'zlarining kompyuter texnologiyasidan foydalanish bilim va malakalarini 6,7 foizi a'lo darajada, hech qanday muammosiz to'liq foydalana olishlarini, 50 foizi yaxshi, ya'ni kompyuterda bimalol ishlashda ayrim muammolarga duch kelishlarini, 41,3 foizi o'rta darajada faqat Wordda yozish, o'yin o'ynash, Internetga kirish kabi sodda harakatlarni bajara olishini va 2 foiz sinaluvchilar past darajada, kompyuterda mustaqil ishlashni deyarli bilmasliklarini belgilaganlar (2-rasmga qarang).




2-rasm. Respondentlarning kompyuter texnologiyasidan foydalanish malakasi

Bundan ko‘rinadiki, yoshlarning kompyuter va Internetdan foydalanish kompetensiyalari yetarli emas. Umumiy hisobda sinaluvchilarning 43,3 foizi Internetdan mustaqil foydalanish malakasiga ega emasligini ko‘rish mumkin. Tadqiqot doirasidagi sinaluvchilarning yosh chegarasi 16-19 yosh oralig‘ida bo‘lib ularning 15,3 foizi 6-8 yoshdan, 26 foizi 9-10 yoshdan, 26 foizi 11-12 yoshdan, 14 foizi 13-14 yoshdan, 18,7 foizi 15-16 yoshdan kompyuter o‘yinlarini o‘ynashni boshlaganlarini (3-rasmga qarang).



3-rasm. Kompyuter o‘yinlarini o‘ynash. Yosh ko‘rsatkichlari.


Deyarli o‘n yil oldin, yoshlarning 15,3 foizi kompyuter o‘yinlarini doimiy ravishda o‘ynab boshlaganliklarini hisobga olsak, bugungi kundagi imkoniyatlarda bu darajaning oshganini va yosh chegarasi yosharganini xulosa qilish mumkin. Bugungi kunda Internet yoshlarning 20 foizi uchun yaqin do‘st, 5,3 foizi uchun sport, 69,3 foiz yoshlar uchun xordiq chiqarish vositasi, 5,4 foiz yoshlar pul ishlashning qo‘shimcha vositasi vazifasini bajarayotganini bildirganlar (4-rasmga qarang).



4-rasm. Internetdan foydalanish motivlari.

Yoshlarning 69,3 foizi uchun Internet shunchaki xordiq chiqarish vositasi vazifasini o‘tayotgani yaqin kelajakda axborot tahdidi sanalgan kiberbulling hodisasining tarqalish ehtimoli ya‘ni, ularda kiberbullinglarni amalga oshirish va kiberbulling tahdidiga uchrash darajasi yuqori ekanligidan dalolat beradi.

So‘rovnomada qatnashgan yoshlarning 16,4 foizi 1 soatgacha, 51,3 foizi 2-3 soatgacha Internetdan uzluksiz foydalana olishlarini bildirganlar. Umumiy ish vaqtining deyarli yarmini uzluksiz kompyuterdan foydalanishga sarflaydiganlar jami respondentlarning 32,3 foizini tashkil etadi, shundan 18 foizi 3-5 soat, 7,3 foizi 5-7 soat, 0,7 foizi 7 soatdan ko‘proq vaqtini uzluksiz ravishda Internetda o‘tkazayotganini bildirgan. (5-rasmga qarang).



5-rasm Bir kunda uzluksiz ravishda kompyuterdan foydalanish vaqti

Ushbu savolning tahlili bugungi kunda yoshlarda Internetdan foydalanish kompetensiyasini va turli tahdidlar, jumladan kiberbulling tahdididan himoyalaniş ko'nikmalarini shakllantirish qay darajada muhimligini ko'rsatib bera oladi. Zero, o'rganishlarimiz natijasiga ko'ra, kiberbullingni amalga oshirgan shaxslar kelajakda uning ijtimoiy oqibatlari og'irroq turlari kiberstalking va trollingni amalga oshirishga moyil bo'lib boradilar.

Xulosa qilib aytganda, axborot-psixologik xavfsizlikka tahdidlardan himoyalanişda, eng muhimi, yoshlarning internetdan foydalanish kompetensiyalarini oshirish, axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish, yoshlar ongida turli axborot tahdidlaridan himoyalaniş mexanizmlari shakllantirib borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Polvanova D.T. Zamonaviy yoshlar, bullying va kiberbulling muammolari. Uslubiy qo'llanma. –T.:2023. –50 b.
2. Polvanova D.T. Non-traditional threats to information-psychological security: a psychological description of bullying and cyberbullying phenomena. <https://eprajournals.net/index.php/IJMR/article/view/2224/>

THE SPECIFIC ASPECTS OF LEARNING SOCIOLINGUISTIC COMPETENCIES USING RETROSPECTIVE ANALYSIS.

Solikhova Ra'no Qahramon qizi

Uzbek state world languages of the university - PhD student.

ABSTRACT

Sociolinguistics involves retrospective analysis to understand language variation and transformation over time, shedding light on how language usage and social circumstances influence each other. distinguishing sociolinguistics from the sociology of language, scholars like Paulston and Crystal highlight its focus on the description and explanation in social contexts. studies like Khan's exploration of British and American English among Pakistani graduates reveal regional variations and social influences on language usage. The field faces challenges such as the observer's paradox in data collection and ensuring verifiable validity. Variationist sociolinguistics, developed by Labov and Trudgill, focuses on understanding language variation and its social correlates. It aims to uncover sociolinguistics universals while addressing the complex interplay between language and society.

Keywords: Intercultural communication, bilingual education, language teaching, Variationist sociolinguistics, observer's paradox, language attitudes, second language, language shift, socioeconomic factors, language acquisition, language change, dialectology, sociolinguistic variables, language variation.

INTRODUCTION

Sociolinguistics studies the connection between society and their languages, investigating the way of language usage differentiates across various social communities and conditions. In other words, retrospective analysis within studying sociolinguistics competences includes identifying past language information, as well as sociological circumstances to comprehend features of language variation and